NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

2023 - yil 11 - mart 20-5-70-Q/23 Konimex tuman hokimligi

“Navoiy-Uchquduq-Zarafshon shahri orqali” avtomobil yo‘lida yangidan o‘rnatiladigan taqiqlovchi yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. “Navoiy-Uchquduq Zarafshon shahri orqali” avtomobil yo‘lida ilovaga muvofiq yangidan o‘rnatiladigan taqiqlovchi yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (U.Rahmatov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Y.Samandarov)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (R.Shokirov)ga mazkur yo‘l belgisi o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Kenimex tani” gazetasida chop etilsin va hokimlikning

rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Muratov zimmasiga yuklatilsin.

Konimex tumani hokimi vazifasini vaqtincha bajaruvchi **U.Saitov**

Konimex tuman hokimining
2023 yil 11 martdagi
20-5-70-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga o‘rnatiladigan yo‘I belgilari bo‘yicha

MALUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Yo‘l belgisi nomi
1	“Ko‘kcha” MFY	A-379 “Navoiy-Uchquduq Zarafshon shaxri orqali” avtomobil yo‘li 80,1 km (O‘ng tamon)	3.24 - Yuqori tezlik cheklangan (70)
2	“Ko‘kcha” MFY	A-379 “Navoiy-Uchquduq Zarafshon shaxri orqali” avtomobil yo‘li 91,3 km (Chap tamon)	3.24 - Yuqori tezlik cheklangan (70)
3	“Karakata” OFY	A-379 “Navoiy-Uchquduq Zarafshon shaxri orqali” avtomobil yo‘li 130,9 km (O‘ng tamon)	3.24 - Yuqori tezlik cheklangan (70)
4	“Karakata” OFY	A-379 “Navoiy-Uchquduq Zarafshon shaxri orqali” avtomobil yo‘li 135,9 km (Chap tamon)	3.24 - Yuqori tezlik cheklangan (70)